

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil
14-yanvar
N:2
(66907)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

VATAN MUHOFAFASI - MUQADDAS BURCH

Inson borki, orzu
umidlar, ezgu niyatlar
bilan yashaydi. Bir orzusi
ijobat bo'lsa, o'rini yangi-
yangi niyatlar, maqsadlar
to'ldirib boraveradi. Zero,
ana shunday go'zal
tuyg'ular ila hayotimiz
mazmun-ma'no kasb eta-
veradi.

Aziz o'quvchilar, ayting-
chi, orzular ijobatini
ta'minlovchi omillar sizning-
cha nimalardan iborat?
O'qish, o'rganish, izlanish,
intilish, deysizmi? Juda
to'g'ri! Yana bir muhim
omil borki, u yurt tinch-
ligi, osoyishtaligi, desak,
fikrimizga qo'shilasiz-a?!

Demak, tinchlik,
barqarorlik hukm surayot-
gan jonajon diyorimizda
har qancha orzular qilsak,
yarashadi, ularning usha-
lishidan ko'ngillar ravshan
tortadi.

Bizning tinch, xotirjam
hayotimiz Qurolli Kuchla-
rimiz tomonidan mustah-
kam himoya qilinmoqdaki,
uning saflarida xizmat
qilib, zimmasidagi
mas'uliyatli burchni sidqi-
dildan ado etayotgan, mus-
taqilligimiz, taraqqiyoti-
miz barqarorligiga kamar-
basta bo'layotgan mard,
jasur o'g'lonlarimizni har
qancha e'zozlasak,
ko'klarga ko'tarsak,
arziydi.

(Davomi 2-betda)

SH:MAXMADOIYEV/kolijji

YURTNING BO'LAJAK POSBONLARI

2-bet



... O'zining mustahkam irodasi, Vatanga sadoqati bilan haqiqiy qahramonlikka tayyor bo'lgan harbiy o'g'lonlarni men o'z farzandlarim, o'z bolalarim, deb bilaman va ular uchun borimni berishga tayyorman.

Islom KARIMOV

VATAN MUDOFAASI - MUQADDAS BURCH

(Boshi I-betda)

Ana shunday ezgu maqsadlarda mana bir necha yildirki, mamlakatimizda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kunini milliy bayram sifatida katta tantana qilib kelmog'damiz. Istiqlol yillarida mamlakatimizda ixcham, tezkor, harakatchan, yaxshi qurollangan armiyani shakllantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Kechagina «Istiqlol tengdoshi» man deya gazetamizga maqola va xabarlar yozib yurgan o'g'lonlarimizning bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz safida o'z yigitlik burchlarini o'tashayotgani qalblarda faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ularga berilayotgan imkoniyatlar, amaliy mashg'ulotlar o'tishlari, harbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari, madaniy hordiq chiqarishlari, ma'naviyatlarini boyitishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar havas qilsa arzigudek. Davlatimiz rahbarining bevosita g'amxo'rli va e'tibori tufayli harbiy xizmatchilarning yashash va xizmat sharoitlari tobora yuksalib borayotganining shohidi bo'lyapmiz.

O'z navbatida harbiylarimiz ham yurt posboni degan sharaflı nomga munosib bo'lish uchun sidqidildan xizmat qilishyapti, mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatib, «Mardlik», «Jasorat» kabi yurtimizning yuksak orden va mukofotlariga sazovor bo'lishyapti. Ularga havasmand o'g'lonlar orasida qizlarimizning ham ko'payib borayotgani quvonarli hol. Zero, tinchlik atalmi eng oliy qadriyatning qadr-qimmatini anglash, Vatan mudofaasi muqaddas burchdir.

Odamlari shaxdam, nigohlari o'ktam fidoyi o'g'lonlarimiz borki, bexavotir olamiz orom, hayotimiz osuda, mustahkam qo'rg'on!



JALOLIDDIN

Harbiy xizmatdan qaytgan akasining bosh kiyimini kiyib olib, men ham askar bo'laman, deya mitti qo'lichalarini chakkasiga tirashga urinayotgan bolakayni suhbatga tortamiz:

- Isming nima?
- Jaloliddin Quybonov!
- Yoshing nechada?
- Uchda.
- Katta bo'lsang kim bo'lasan?
- Askay bo'laman...
- Askarlar qanday bo'lishadi?
- Zo'-o'-y bo'lishadi!..

Hali «r» harfini ham to'g'ri aytolmaydigan kichkintoyning

munchoqdek ko'zlaridagi quvonchni, havasni ko'rib, dilimizdagi niyatlarimiz beixtiyor tilimizga ko'chdi:

O'z ismingga munosib bo'l,
Mard, jasur va pahlavon.
Asl o'g'lon bo'lg'in xalqqa,
Yurtga mustahkam qo'rg'on!

DILAFRO'Z olgan surat

YURTNING BO'LAJAK POSBONLARI

Jasorat, mardlik – yigit kishining ziynati. Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlayotgan barcha harbiylarimizda bunday xislatlar mujassam. Kichkinaligidanoq yurtga posbon bo'lishni niyat qilgan bolalar ham o'zlarida ana shunday fazilatlarini shakllantirishga intilishadi. Zero, bu xislatlar bizga ajdodlarimizdan merosdir.

Poytaxtimizdagi O'zbekiston Ichki ishlar vazirligining Harbiylashtirilgan maxsus maktab-internatida tahsil olayotgan bo'lajak Vatan

himoyachilari ham Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lishni niyat qilishgav.

– Yurtimiz ravnaqi, uning taraqqiyoti unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim darajasi, aqliy salohiyatiga bog'liq. Shu bois, maktab-internatimizda ta'lim olayotgan kursantlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishiga, ularni yurtga sadoqat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratamiz, – deydi o'quv maskani direktori mayor Ansob Saydalimov.

Ushbu bilim dargohida ko'plab iqtidor egalari tahsil olishmoqda. Hasan va Husan Egamqulovlar ana shunday kursantlardandir. Harbiy sohaga o'zgacha mehr qo'yg'an bekobodlik bu aka-uka maktab-internatning faxri sanalishadi. Harbiy salohiyatini oshirish bilan birga puxta bilim olishga intilayotgan bu o'g'lonlar kelajakda yurtimiz tinchligini mustahkamlash, Vatanimiz osoyishtaligini

ta'minlashdek muqaddas burchni sidqidildan ado etishni niyat qilishgan.

– Bolaligimda dadam ichki ishlar xodimlari kiyimida



uyga kirib kelganida akam ikkimiz rosa sevinardik. Bosh kiyimini doim «Men kiyaman» deya talashib-tortishardik. Afsuski, bundan bir necha yil avval dadam o'z xizmat burchini ado etayotgan vaqtda halok bo'ldi. Biz ham kelajakda xuddi dadam singari jasur va mard inson bo'lamiz, Vatan osoyishtaligi yo'lida kerak bo'lsa

jonimizni ham ayamaymiz, – deydi Husan Egamqulov.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Istiqlol yillarida mamlakatimizda yoshlarimiz iste'dodini ro'yobga chiqarish, ularning iqtidor va salohiyatini namoyon etishlariga shart-sharoit yaratish alohida vazifa sifatida belgilab olindi. Natijada ko'plab iqtidorli farzandlarimiz sport, ta'lim, san'at yo'nalishlarida yuksak marralarni zabt etishayotir. 1999-yil Buxoro viloyati G'ijduvon shahrida tug'ilib o'sgan Alisher To'xtayev ham ana shu maskanning iqtidorli o'quvchilaridan sanaladi. Hozirda maktabning 7-sinfida tahsil olayotgan bu yosh

kursant sportning dzyudo turi bilan jiddiy shug'ullanib kelmog'da. O'tgan 2012-yilimiz yosh polvon uchun omadli keldi. U Belarus mamlakatida dzyudo bo'yicha bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro tanlovda III-o'rinni qo'lga kiritib, ota-onasi, kursant do'stlari, ustoz Qodir Xushvaqto'vning ishonchini oqladi.

– O'zbekiston alplar va pahlavonlar yurtidir. Shu bois bolaligimdan dzyudo sport turi bilan jiddiy shug'ullanib kelaman. Kelajakda harbiy bo'lishni niyat qilgan ekanman, albatta, sport bilan shug'ullanishim lozim, – deydi Alisher.

Yurt kelajagi bo'lgan yosh avlodga e'tibor, ularni yuksak marralar sari ruhlantiradi. Ishonamizki, mazkur bilim maskanida tahsil olayotgan yosh kursantlar ham davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, kelajakda ona Vatanimizga munosib farzand bo'lishadi.

Sa'dullo TURSINOV



USHALGAN ORZU

Menga tarix fani juda yoqadi. O'qituvchimiz Jahongir aka Akromov, «Temuriylar tarixi» davlat muzeyiga sayohatga boramiz, deganlarida juda xursand bo'lib ketdim. Chunki bu muzeyga borish mening azaliy orzum edi. Ta'til kunlarida guruhimiz bilan muzeyga yo'l oldik. Binoga kirishimiz bilan xuddi o'sha davrga tushib qolgandek bo'ldik. Qadimda ajdodlarimiz kiygan kiyimlar, bobomiz Amir Temur o'tirgan taxt, o'sha davrga oid qurol-aslahalar bizda o'zgacha taassurot qoldirdi. Qalbimizda g'urur tuyg'usi uyg'ondi va sayohatimizni fotosuratga muhrladik.

Zulayho ZARFULLAYEVA,
O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov
nomli akademik litsey o'quvchisi



Ta'til taassurotlari

Qishki ta'til kunlarida maktabimizning bir guruh o'quvchilari bilan birgalikda poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan O'zbekiston Davlat tabiat muzeyiga bordik. Fan, ilmiy-ma'rifiy, ekologiya va tabiatshunoslik bo'limlaridan iborat bo'lgan muzeyda 380 mingga yaqin eksponatlar mavjud ekan.

MAROQLI SAYOHAT

Ayniqsa, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi bizda zo'r qiziqish uyg'otdi. Turfa xil qushlarning yashash tarzi haqida ko'plab ma'lumotlar oldik. Bundan tashqari, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlarining parvarishi haqida ham ko'p narsalarni bilib oldik. Yashillik olami bizga zavq bag'ishladi.

Tabiat muzeyi ilmiy xodimi Munisa Azimova bizni qiziqitgan barcha savollarga misollar asosida javob berdi. So'lim va jannatmakon o'lkamiz tabiati sir-sinoatlarga boyligi, bir tomoni baland va osmono'par tog'lar, ikkinchi tomoni adoqsiz yaylovlar va ekinzorlar bilan tutashib ketgani haqida qiziqarli hikoyalar so'zlab berdi.

Xullas, tabiat muzeyiga qilgan sayohatimiz bizda yaxshi taassurot qoldirdi. Muzeyga har kuni 50-60 nafar yosh tabiatsevarlar kelib turishar ekan. Bunday maroqli tomoshadan barcha tengdoshlarim bahramand bo'lishlarini istardim.



Feruza ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
134-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi

YURTIMIZ POSBONLARI



Qo'rqmas, botir, bahodir,
Ezgu ishlarga qodir,
Ular shunday o'g'londir,
Yurtimiz posbonlari.

Qalbida ezgu g'oya,
G'anim tashlolmas soya,
Bizni qilar himoya,
Yurtimiz posbonlari.

Ochgan Vatan ko'rkini,
Ko'zdan quvib uyquni,
Bilmas aslo qo'rquvni,
Yurtimiz posbonlari.

Ona xalqin yoqlagan,
Ishonchini oqlagan,
Tinchligimiz saqlagan,
Yurtimiz posbonlari.

Ilhomjon IBRAGIMOV,
Jizzax politexnika instituti qoshidagi
akademik litsey o'quvchisi

Tengdoshingiz
Dinora
Bekmurodova
Chirchiq
shahridagi
5-umum-
ta'lim mak-
tabining
7-sinfida
o'qiydi.



**DINORA
SHE'RLAR YOZDI**

U bo'sh
vaqtlarida she'rlar
mashq qiladi.

– Yozgan she'rlarim biroz tahrirga muhtoj. Ammo bundan ham mukammal she'rlar yozsam, albatta, birinchi bo'lib «Tong yulduzi»ga beraman, – deydi Dinora. Darvoqe, ustozlarimning, tengdoshlarimning gazetada chop etilayotgan she'rlarini o'qib, men ham yozishni o'rganaman, deya u sevimli nashriga bir yilga obuna bo'libdi. Agar Sizda ham shunday niyat tug'ilsa, hali ham kech emas. Obuna uzluksiz jarayon.

Orzular – kelajagimiz poydevori. Orzular bor yurakda g'oyalar, g'oyalar bor joyda maqsadlar, maqsadlar bor joyda esa kelajak bo'ladi. Dunyoda yetti milliarddan ortiq aholi bor. Demak, orzular soni ham shuncha! Kimdir o'qishga kirishni, kimdir oila qurishni, kimdir sayohatni, yana kimdir Vatan diydorini orzu qiladi.

PARVOZI BALAND QUSHIMIZ

Bobolarimizning eng buyuk orzusi yurtimizni erkin va obod ko'rish bo'lgan bo'lsa, ne ajab?! Ularning orzulari ijobatini biz yoshlar ko'ryapmiz, O'zbekiston atalmish erkin va farovon yurtda yashamoqdamiz. Mustaqil fikrlaymiz, yashashimiz, sog'ligimiz, ta'lim va tarbiyamiz, huquq va erkinliklarimiz kafolatlangan. O'z iste'dodimizni nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda namoyon etmoqdamiz. Iqtidorlarni izlab topish va ularni rag'batlantirishga qaratilgan «Yangi avlod», «Kelajak ovozi», «Nafosat», «Nihol», «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovlari iste'dodli, salohiyatli o'g'il-qizlar uchun imkoniyatlar eshigidir.

Men ham turli tanlovlarda qatnashib g'olib bo'lganimda, muhtasham sahnalarda turib, g'oliblik yorlig'ini qo'limga olganimda, mustaqil diyorning baxtli

farzandi ekanligimni his qilaman.

O'tgan 2012-yilda ham bir necha tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdim.

«Moyi osmon qo'shiqlari» nomli she'riy to'plamim chop etildi. «Obod turmush yili»da ham yangi-yangi zafarlar sari intilaman.

Zero, davlatimiz biz uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berayotgan ekan, biz ham uning oldida mas'ulmiz. Vatanimiz – moyi osmon, biz esa baland parvozga shaylangan qushlarmiz.

Shodiyabegim SHAROFIY,
Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi
«Sayiljoy» akademik litsey o'quvchisi

*Aziz o'quvchim!
Va'da qilganimizday
siz uchun yangi
sahifa va ruknlar
tayyorlashni bayram
tuhfasi sifatida
«O'g'il bola – mard
bola, ruknidan
boshladik. Zero,
zalqimiz hamisha
o'zining bilimli,
iste'dodli, shifoatli,
mard o'g'lonlari bilan
fazzlanib yashaydi.
Oilada ham o'g'il
farkand ota-onasiga
suyanchiq
hisoblanadi. Shunday
ekan, Siz ham
yuqorida sanab
o'tilgan fazilatlariga
ega bo'lish uchun
bugundanoq o'zingizni
tarbiyalab, ota-ona va
Vatan oldidagi
burehlaringizni ado
eta olishga tayyorlab
borishingiz lozim.
Mazkur yangi
ruknimiz orqali bu
borada Sizga
ko'makdosh bo'lish
niyatidamiz...*

ISINGIZ JISINGIZGA MOSMI?

Qo'shnilar Xolida opaning o'g'li G'ayratni «Ismi jismiga mos, juda serg'ayrat bola-da», deya alqashadi. Chindan ham u uydagi barcha yumushlarni bajaradi, singillarini ardoqlaydi. Maktabda ham tirishqoq, tinib-tinchimas o'quvchi.

Siz-chi? Ota-onangizning sizga umid va ishonch bilan qo'ygan ismlariga munosibmisiz?

Orangizda ismi-jismiga monand Jasur, Botir, Jahongir, Temur, Azamatlar ko'pligiga ishonamiz!

MARD DEGANDA...

O'g'il bolalarga mard deya ta'rif berilganda, uning faqat qo'rqmas, dangalchiligi nazarda tutilmasligini bilasiz-a? Bunda chidamli, irodali bo'lish, har qanday vaziyatda ham o'zini boshqara olish kabi xislatlar ham inobatga olinadi.

Jamoat joylarida, ayniqsa, qiz bolalar, onaxon-u buvijonlarimiz bor joyda har bir



yo'lovchi mashinalarning orqasiga osilib, hayotingizni xavf ostiga qo'ymoqdasiz. Haydovchilarni xafa qilayotganingiz ham turgan gap. Bu manzarani chetdan o'zingiz kuzatib, xulosa chiqaring. Bizningcha, bu mard bolaning ishi emas.

ENG FAOL O'QUVCHI

Qadrli bolajonlar, yuqoridagi mulohazalarimizni o'qib, bu ruknda faqat nasihat eshitar ekanmiz-da, deya xulosa chiqarishga shoshilmang! Ruknimizda mard bola, degan ta'rifga loyiq tengdoshlaringiz haqida ham o'qib borasiz. Darvoqe, unda qizlar ham ishtirok etib, sinflaridagi eng namunali o'g'il bolalar yoki aka-ukalari haqida yozib yuborishlari mumkin. Masalan, poytaxtimizdagi 226-maktabning 9-«G»sinf qizlari sinfdosh o'g'il bolalar haqida yaxshi fikrlar aytib, ularni gazetamiz orqali bayram bilan tabriklash istagini bildirishdi. Bundan tashqari ular sinfdoshlariga kichik sovg'alalar ham tayyorlashibdi.

QIZLARXON

gapni o'ylab gapirish, bachkana harakatlar qilmaslik ham mard bolaga xos fazilat. Zero, ajdodlarimiz mulohazali, chuqur o'ylab, aql bilan gapiradigan, ayniqsa, ayollar oldida alohida so'zlashish odobiga rioya qilgan zotlar bo'lishganini yaxshi bilasiz. Birgina «O'tkan kunlar» asaridagi Otabek, uning otasi Yusufbek hoji kabilarni eslang.

O'YINQAROQ BOLALAR

Sho'x, o'yinqaroq bolakaylar, shu kunlarda sizning ba'zi xatti-harakatlaringiz kattalarni tashvishga solayotganini bilasizmi? Ya'ni, yaxmalakda sirpanchiq uchish niyatida

VATAN TUYG'USI

15-dekabrda 14-yanvarga qadar e'lon qilingan «Harbiy vatanparvarlik» oyiligi doirasida bilim maskanimizda ommaviy vatanparvarlik tadbirlari o'tkazildi.

Ayniqsa, 9-«A» va 9-«B» sinf o'quvchilari ishtirokidagi «Vatanni mard va jasur o'g'lonlar qo'riqlaydi», mavzuidagi suhbat qiziqarli tarzda o'tdi. O'quvchilardan Elmurod Xo'jamberdiyev va Toshtemir O'rishboyev «Sangzor» mahallasida istiqomat qiluvchi el e'zozidagi ota-

bobolarimizning Vatan himoyasi, chegaralarimiz daxlsizligi yo'lida ko'rsatgan jasoratlar haqida maroq bilan so'zlab berishdi.

Shuningdek, 2-«A» sinfidagi Vatan tuyg'usi mavzuida o'tkazilgan tarbiyaviy mashg'ulot kichikintoylarda katta qiziqish uyg'otdi. Har bir o'quvchining mavzuga doir tushunchalarini erkin ifodalashi uchun mashg'ulot savol-javob asosida olib borildi. «Vatan» tushunchasini o'quvchilar o'zlari yashab turgan xonadon, ko'cha, mahalla, o'quv dargohi, do'stlari, ota-onalari va ustozlari kabi qadrli, e'zozli ekanligini birma-bir ta'kidlab o'tishdi.

Tadbir ishtirokchilari mashg'ulot davomida a'lo baholarga o'qishlari, tabiat muhofazasi, erishayotgan yutuqlari – bu Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat belgisi ekanligini chuqurroq angladilar.

Mashg'ulotda faol ishtirok etgan o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Jamila JO'RAYEVA,
Jizzax shahridagi
1-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi,
«Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi

S.FARMONOV chizgan rasm

«Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi

Insonning kamoloti uning yurish-turishi, iqtidori, aqlan va jismonan sog'lomligiga bog'liq. Insonning dunyoqarashi uning ma'naviyatini belgilaydi. Ma'naviyatli inson o'z kelajagi, qolaversa yurt ertasini nuraflon qilishga qodir bo'ladi.

MA'NAVIYAT – QALB QUYOSHI

Bejizga ota-bobolarimiz «Ma'naviyat-qalb quyoshi» deyishmaydi. Biz yosh avlodga ma'naviyat naqadar ulkan va beqiyos qadriyat ekanligini yanada mukammalroq tushuntirish maqsadida maktabimizda «Iste'dod namoyishi» nomli ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar Vatan, ota-ona, ustozlarni ulug'lovchi she'r va qo'shiqlari bilan ishtirok etishdi. Yosh musavvirar, aktyorlar, hunarmandlar, qo'yingchi, barcha qatnashchilar dunyoqarashlari naqadar boy ekanini namoyish etishdi. Iqtidorli, ilmga chanqoq ijodkorlar maktab ma'muriyatining esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.


Ushbu tadbirni tashkillashtirishdagi jonbozligi, sa'y-harakatlari uchun ustozimiz Surayyo opa Karimova ham «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi.

Dilshodaxon MAMADALIYEVA,
Farg'ona viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
10-maktab o'quvchisi



O'ZIMIZNING YUSUF OG'A

50



Z. NISHONOVA olgan surat

kutishyapti, – deydi xavotir bilan maktab o'qituvchisi.

– Albatta boradi, hali vaqt bor-ku, – deya tinchlantiraman ustozni.

Shu payt ichki telefonimiz jiringlaydi.

– Bugun 15⁰⁰ da «Bolalar ijodiyoti markazi»da respublikamizdagi iqtidorli o'quvchilarning tadbiri bo'ladi. Men Abdullayevni yozdirib qo'yganman, – deydi rahbarimiz yana bir bor eslatib qo'yish maqsadida.

– Uning xabari bor, fotomuxbir bilan birga boradi, – deyman bosh muharrirni xotirjam qilib.

Bu holat hamkasbimiz Yusufjon Abdullayevning odatiy ish kunlaridan biri, xolos.

Yusufjon aka matbuot sohasida 1988- yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Dastlab ish faoliyatini «Sharq yulduzi» jurnalida musahhihlikdan boshlab, texnik muharrir, keyinchalik, mas'ul kotib lavozimida, jami yigirma yil samarali mehnat qildi.

Jamoamizga qo'shilganiga ham mana besh yil bo'libdi. Bu davr mobaynida hamkasbimiz ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga muharrirlik qilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi turkum maqolalar yozdi va ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayni chog'da bolalikning beg'ubor olami, orzu-umidlari haqida hikoya qiluvchi «Qarg'a ekan yong'oq» nomli hikoyalari to'plami «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashrga tayyorlanmoqda.

Yusufjon aka o'z kasbiga fidoyiligi, samimiyligi, kamtarligi, mualliflarga hamda yosh muxbirlarga bo'lgan ehtiromi bilan ko'pchilikning e'tiborini qozongan.

Tahririyat tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bekam-u ko'st bajarishini yoshlarga ibrat qilsak arziydi. Shu sabab u atrofda gilarining hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Gazetaning har bir soniga hamkasbimiz biror yangi, qiziqarli mavzu topishga harakat qiladi. Va qaysidir ma'noda buning uddasidan chiqadi ham. Uning «Maktabingga boraman, bolam...», «Milliy bog'da ma'naviyat bayrami», «O'smirlar ostonasida», «Sport va yoshlik bayrami», «Kitobga ehtirom», «G'oliblik sari yo'l», «Biz bunga qodirmiz» kabi hikoya va maqolalari siz aziz o'quvchilarga tanish. Ijodkor akangiz «Yusuf Og'a» taxallusi bilan hali yana ko'plab qiziqarli hikoyalari, dolzarb mavzudagi maqolalari bilan Siz aziz o'quvchilarni quvontirishi aniq.

Bugun tahririyatimizda qo'shaloq bayram. Vatan himoyachilari kunida Yusuf Og'a ning yarim asrlik tavallud ayyomlarini nishonlamoqdamiz. Hamkasbimizga sog'lik-salomatlik, ijodiy parvozlar tilab, eziguniatlarimiz yakun topmay yana telefon...

– Assalomu alaykum, men maktab rahbariman, Yusufjon Abdullayevni mumkinmi, tadbirga taklif qilmoqchi edik...

Men go'shakni u kishiga uzatdim va ko'nglimdan shunday o'ylar kechdi:

Biz Sizga ishonamiz va suyanamiz, Yusuf Og'a!
Feruza SOYIBJON qizi

Ish kunimiz boshlanishi bilan tahririyatimiz telefoni jiringlaydi:

– Labbay, assalomu alaykum!

– Bugun soat 11⁰⁰ da tadbirimiz bor edi, xat ham jo'natganmiz. Kim qatnashadi, familiyasini yozib olmoqchi edim, – deya go'shakning ikkinchi tomonidan ovoz keladi.

– Yusufjon Abdullayev boradi.

Oradan hech vaqt o'tmay yana telefon qo'ng'irog'i chalindi:

– Bugun soat 13⁰⁰ dagi tadbirimizga Yusufjon aka kelishlari kerak edi, o'quvchilaring

Hol-ahvol so'rashdik. Azim aka mashinasida bo'sh joy borligini, meni ham olib ketishini aytdi.

Men bu taklifga bajon-u dil rozi bo'ldim. Azim akaning uch o'g'il, bir qizi bor ekan. Hammalari hali o'quvchi. Kattasi Shohruh sakkizinchi sinfni bitiribdi. Bolakaylar bilan tezda inoqlashib, suhbatlashib ketdik. Kunning taftigami yoki charchab qolishdimi, orqa o'rindiqda o'tirgan bolalar birin-ketin uyquga ketishdi. Birgina Shohruh tevarak-atrofni tomosha qilib ketyapti.

– Bolalarga va'da bergan edim, – dedi Azim aka menga bir qarab olib, – besh bahoga o'qisalar, ta'tilda Toshkentga olib boraman, deb. Hammasi a'lochi bo'lib ketishdi. Mana bugun istirohat, hayvonot bog'larini aylantirib kelyapman...

Dovonning eng cho'qqisida to'xtab, bolalarga

O'JAR BOLA

Bu voqea ancha yillar ilgari bo'lib o'tgandi. Universitetning birinchi bosqichini tamomlab, ta'tilda uyga ketish harakatida edim. Kutilmaganda ota mahallamizda yashaydigan Azim akani ko'rib qoldim.

atrof go'zalligini bir ko'rsatgim keldi. Bu taklifim hamrohimga ham ma'qul tushdi. Dovon yo'lining chetida shaxdam qadamlar bilan ketayotgan askar yigitlarni ko'rib, Azim akaning zavqi jo'shdi:

– Otangga balli! Ish mana bunday bo'пти. Qarang, naqd burgutga o'xshashadi-ya!

Bir-biridan norg'ul askar yigitlarga mening ham havasim keldi. Qarasam, Shohruh ham ko'zlari chaqnagancha ular tomon qarab turibdi.

– Men ham zobit bo'laman!

Nazarimda Shohruh bu gapni beixtiyor aytib yubordi.

Otasi yarim o'girilib o'g'liga bir qarab oldi-da:

– Sendan zobit chiqmaydi. Velosipedni eplab minolmaysan-ku, – dedi istehzoli kulib.

Bu gapdan hayron bo'lib qoldim. Ko'zimni qiri bilan yigitchaga nazar soldim. E'tibor bermagan ekanman, Shohruhning qo'llari ingichka, nimjon, gavdasi ham yoshiga qaraganda kichikroq ekan.

Otasining gapidan keyin uning chaqnab turgan ko'zlari ma'yus tordidi. Men ham xafa bo'ldim. Uyga yetguncha churq etmay ketdik. Shohruhning ma'yus ko'zlari ancha

vaqtgacha ko'z oldimdan ketmay yurdi...

O'qishni bitirib, shaharda ishga qoldim. Bir gal ota-onamni ko'rish uchun qishloqqa bordim. Mahallamizga qayrilganida yonimdan o'tib ketayotgan mashina to'xtab, ichidan Azim aka tushib keldi. Qo'yarda-qo'ymay mashinasiga o'tqazdi.

– O'shanda mendan xafa bo'luvdingiz-a, – deya gap boshladi salom-alikdan so'ng bundan bir necha yil avvalgi uchrashuvimizni nazarda tutib.

– To'g'ri, – dedim ochig'ini aytib. –

Yosh bolaga unday demaslik kerak edi.

– Men ataylab qilgandim. Shu o'g'lim xuddi o'zimning yoshligim. Biroz dangasaligi bor. Bolaligimda mening ham jahlimni chiqarishmasa, bir ishga qo'l urmasdim. O'shanda Shohruhga alam o'tgan ekan. O'jarligi tutdi. Jismoniy mashqlarga zo'r berdi. Maktabni bitirish yili esa har yelkasiga bittadan tog' qo'nadigan pahlavonga aylandi. A'lo baholarga imtihon topshirib, harbiy bilim yurtiga kirdi. Hozir o'zi niyat qilganday zobit. Chegara qo'shinlarida Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlayapti. Ikkinchi o'g'lim ham harbiy bilim yurtida o'qiyapti. Kenjamiz ham akalariga havas qilib harbiy bo'lmoqchi...

Azim akaning iftixor bilan gapirishidan ko'nglim yorishib ketdi. Nimagadir shu tobdan Shohruhni juda juda ko'rgim keldi.

Yusuf OG'A





MEHRIM CHEKSIZ SIZLAR UCHUN YURAGIMDA

O't chaqnasin har bir bosgan izingizda,
G'urur yonib tursin mangu ko'zingizda,
Ishonch bo'lsin doim aytgan so'zingizda,
Ey, yurtimning mardi maydon o'g'lonlari!

El tinchini o'ylaguvchi posbon bo'ling,
Mehri daryo, ko'ksi baland, osmon bo'ling,
Eng avvalo bizlar uchun omon bo'ling,
Ey, yurtimning mardi maydon o'g'lonlari!

Tangri sizga eng ilohiy baxtni bersin,
Omad bir-la shijoat-u, shaxtni bersin,
Metin kabi iroda-yu ahdni bersin,
Ey, yurtimning mardi maydon o'g'lonlari!

Muhabbatda Farhod bo'ling, Majnun bo'ling,
Orzulardan quyosh yanglig' zavqqa to'ling,
Sohibqiron Temurdayin hurmat ko'ring,
Ey, yurtimning mardi maydon o'g'lonlari!

Mehrim cheksiz sizlar uchun yuragimda,
Quvonch toshib turar har bir tilagimda,
Barchinoyning qoni jo'shar bilagimda,
Ey, yurtimning mardi maydon o'g'lonlari!

Kamola ANVARBEK qizi,
Toshkent shahar, Sergeli tumani.

YURTNING JASUR O'G'LONLARI

Obod bo'lsin ona diyor,
Xalq yashasin deb baxtiyor,
Sarhadlarda har on hushyor,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!

«Rivoj topsin ona Vatan»,
deya doim sergak turgan,
Har biri mard, mohir mergan,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!


Metin-bardosh irodangiz,
Sarhadlararo hormangiz,
Himoyada hech tolmangiz,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!

Muqaddas deb qir-tog'ini,
Yurtning har go'sha, bog'ini,
Asrar qarich tuprog'ini,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!

Sohibqiron avlodisiz,
Buyuk xalqning zuryodisiz,
Vatanning qo'shqanotisiz,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!

O'zbekiston go'zal chaman,
Baxt-toleyi bo'lsin baland,
Bo'ling unga sodiq farzand,
Yurtning jasur o'g'lonlari –
Vatanimiz posbonlari!

Eshniyoz BURHONOV,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumani



MITTI YANGI YIL

Qishning sovuq tunlarining birida Maurikiy tush ko'rib, uyg'onib ketdi. Krovatda o'tirib, yon-atrofga quloq tutdi. Shunda birdan deraza taqillagandek bo'ldi. Maurikiy uyqusirab, derazani ochdi va kim u, deb shivirladi.



– Men, mitti Yangi yilman! Hammaga baxt olib kelishga va'da berganman. Ammo men shu qadar kichkinamanki, baxtni teng taqsimlab, barchaga yetkazish uchun kimningdir yordami kerak bo'ladi. Menga yordam bera olmasanmi? – dedi ingichka ovoz.

– O', juda sovuq-ku! Issiqqina o'rimga qaytib, uxlaganim ma'qul, – dedi Maurikiy erinibgina.

– Sovuqning zarari yo'q, iltimos, menga yordam ber, – deb yalindi Yangi yil. Maurikiy «mehmon»ning iltimosiga «yo'q» deyolmadi. Tezda kiyimlarini kiydi-da, hovliga chiqdi. U yerda katta aravasi chiroyli sovg'alar bilan to'ldirilgan, qizil yanoqli, o'zidan biroz kichikroq bolani ko'rdi. Aravasining bir tomoniga «Mehri», ikkinchi tomoniga «Muhabbat» so'zi yozilgan edi. Yangi yil bilan Maurikiy kekka bir kambag'al kishining uyi tomon yo'l olishdi.

– Birinchi chaqirilgan joyim shu yer, – dedi Yangi yil.

– Axir bu yerda bizning qari xizmatkorimiz Joydan boshqa hech kim yashamaydi-ku! Uning farzandi ham yo'q, – dedi Maurikiy.

– Unga mening yordamim kerak. Ular ham xuddi bolalardek bo'lishadi. Sen uning uyi oldidagi qorlarni kura, bu paytda men baxtdan ozrog'ini unga atab qo'yaman, – dedi Yangi yil.

Keksa Joy tashqaridagi shovqinni eshitib, eshikka yaqin keldi va ostonadagi sovg'alarni ko'rib, ko'zidan xursandchilik yoshlari quyuldi. Sovg'alarni uyiga olib kirarkan: «Xo'jayinim kelganga o'xshaydi», deb qo'ydi pichirlab...

– Biz hozir qayerga ketyapmiz? – deb so'radi Maurikiy tepalikdan tushayotganlarida.

– Bemor qizchaga gul berib kelamiz, – javob berdi Yangi yil.

Keyin ular kichkina oq uy oldiga kelib to'xtashdi.

– Axir bu yerda Bessiy yashaydi-ku! Uning betob ekanligini bilmagandim, – dedi Maurikiy.

– Ha, deraza qiya ochiq ekan. Shu yerdan mana bu gullarni deraza tokchasiga qo'yamiz. Ular bir necha kun qizchani xursand qiladi.

So'ng ular bir necha sovg'a qoldirib, boshqa joyga shoshilishdi.

– Qanday ajoyib aravang bor-a!? Qancha ulashsang ham sovg'alaring kamaygani sezilmayapti, – dedi Maurikiy.

– Ha, sen haqsan. Bunda mehr-muhabbat aslo tugamaydi. Qancha mehrga muhtoj odamlarni topsam, ular uchun aravam to'laveradi. Menga hamrohlik qilsang, yil bo'yi mana shunday xursand bo'lib yurasan...

«Yangi yil bilan!» dedi kimdir. O'rmda yotgan Maurikiy ko'zini ochdi, tepasida esa opasi jilmayib turardi...

Shundagina bu voqealarning barchasi tushida sodir bo'lganini angladi.

Shu tushi sabab Maurikiy do'stlariga, muhtojlarga yordam berishga odatlandi.

Ingliz tilidan Madina MIRZAQOBULOVA
tarjimasi

Bizning tarjima

Bir kuni Tovuq un to'ldirilgan qop topib olibdi. U judayam katta va og'ir ekan. Tovuq qopni bir o'zi ko'tara olmay, O'rdakvoydan yordam so'rabdi:

TOVUQ VA QOP

(Ertak)

– Iltimos, menga shu qopni uyimgacha olib borishimga yordam ber.

Ammo O'rdak uning iltimosini bajarmabdi. Keyin Tovuq G'ozga, so'ngra Tovusoyga yalinibdi, ammo ulardan ham rad javobini olibdi.

So'ngra o'zi bir amallab qopni uyiga olib kelibdi va undan non pishirmoqchi bo'libdi. Lekin bu ishni ham bir o'zi bajara olmasligiga ko'zi yetib, do'stlaridan yana yordam so'rabdi:

– Kim menga non pishirishga ko'maklashadi?

Ammo bu safar ham hech kimdan sado chiqmabdi. U yana bir o'zi ishga kirishibdi. Hash-pash deguncha non ham pishibdi. Tovuq yana do'stlarini chorlabdi:

– Kelinglar, kim non yeydi?

O'rdakvoy va Tovusoy «men», «men» deya yugurib kelishibdi. Shunda Tovuq:

– Yo'q, men sizlarga non bermayman, chunki sizlar mehnat qilishni, do'stingizga yordam berishni istadingiz, – debdi.

Ingliz tilidan Zuhra ASQAROVA tarjimasi.
S.FARMONOV
chizgan rasm



Futbol... Ushbu sport turi haqida so'z ketganda ko'pchilik unga «millionlar o'yini» deya ta'rif beradi.

Lekin bugun futbol o'z atrofiga shu qadar ko'p muxlisni yig'a oldiki, endi unga «millionlar o'yini» deya berilgan ta'rifdan ko'nglimiz to'lmaydi. Negaki, barchamiz birdek sevib muxlislik qiladigan «Real Madrid», «Manchester Yunayted», «Barselona», «Chelsi» jamoalarining ayni paytda dunyo bo'ylab milliardlab muxlislari bor. Yurtimizda ham ushbu kuchli jamoalarga ko'plab futbol ishqibozlari muxlislik qilishadi. Ayniqsa, Krishtianu Ronaldu, Lionel Messi, Robin van Persi kabi futbolchilarning ajoyib o'yinlari, betakror harakatlarini oynay jahon orqali kuzata turib, beixtiyor hayratlanasiz, shunday emasmi?

Kuni kecha Shveysariyaning Syurix shahrida joylashgan FIFA qarorgohida 2012-yil yakunlariga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli tadbirida dunyoning eng kuchli futbolchilari, yetuk murabbiylari, futbol mutaxassislari, ko'plab davlatlarning futbol federatsiyalari rahbarlari va OAV xodimlari ishtirok etishdi.

Biz uchun mazkur bayram tadbirining ahamiyati juda katta edi. Boisi, O'zbekiston futbol

ham bor. Ularga shuni aytib o'tmoqchimizki, «Fair Play» sovrini FIFAning eng muhim mukofotlaridan biri bo'lib, unga yil davomida halol o'yin tamoyillariga to'liq rioya etgan, raqib jamoa o'yinchilariga

doimohurmat

sabab, FIFA O'zbekiston futbol federatsiyasini ana shu yuksak mukofotga loyiq ko'rdi. «Fair Play» sovrinini federatsiya prezidenti Mirabror Usmonov qabul qilib oldi. E'tiborlisi, bu yil mamlakatimizdan boshqa Osiyo va MDH davlatlari futbol federatsiyalari va futbolchilari

FIFA laureatlari bo'la olishmadi.

Esingizda bo'lsa, 2012-yil so'ngida Osiyo futbol Konfederatsiyasi ham ushbu sovringa O'zbekiston futbol federatsiyasini munosib deb topgandi.

Shuningdek, tadbirida 2012-yilning eng yaxshi futbolchisi deb to'rtinchi bor Kataloniyaning «Barselona» jamoasi hujumchisi Lionel Messi topildi. Unga raqiblik qilgan Madridning «Real» jamoasi futbolchisi Krishtianu Ronaldu va «Barselona»ning yana bir a'zosi Andreas Iniestalar munosib ravishda navbatdagi o'rinlarni egallashdi. Eng yaxshi murabbiy sifatida 2012-yili Polsha va Ukraina davlatlarida bo'lib o'tgan futbol bo'yicha Yevropa chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritgan Ispaniya terna jamoasi bosh murabbiyi Visente del Boske e'tirof etildi.

Navro'z NORBOBOYEV

«FAIR PLAY» SOVRINI MUBORAK!



federatsiyasi FIFAning «Fair Play» sovrinini qo'lga kiritish uchun Gvatemala futbol federatsiyasi va Turkiyaning «Eskishehirspor» klublari bilan birga kurash olib bordi.

Oralaringizda ushbu mukofot kimlarga va nima maqsadda berilishi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan yosh futbol ishqibozlari

nazari bilan qaragan, bir so'z bilan aytganda, o'zining chiroyli va halol o'yini bilan dunyo futbol jamoatchiligining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan davlatlarning futbol federatsiyalari erishishlari mumkin.

Bu yil turli yosh toifalaridagi terma jamoalarimizning xalqaro maydonlardagi betakror o'yinlari

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishga, joylarda barpo etilgan zamonaviy sport inshootlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

CHEMPION YOSHLAR SAFI KENGAYMOQDA



Ana shunday g'amxo'rliklar samarasi o'laroq nufuzli xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilayotgan yosh sportchilarimiz safi tobora kengayib boryapti.

Nukus shahridagi II Respublika ko'p tarmoqli bolalar va o'smirlar sport maktabi 700 nafardan ziyod o'g'il-qizni o'z bag'riga olgan mahorat maskanlaridan biridir.

Olti yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan maktabda yoshlar badiiy va sport gimnastikasi, og'ir

atletika, karate, taekvando singari sportning 14 turi bilan mustazam shug'ullanishadi. Maktabga 25 nafar malakali murabbiy jalb qilingan.

Maktab o'quvchilari qo'lga kiritayotgan zalvorli yutuqlar ko'pchilikning e'tiborini tortyapti. O'tgan yili Germaniyada badiiy gimnastika bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada Nigora

Polvonovanning shogirdlari Guliston Otamuradova hamda Sevara Tajimova shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olishdi. 2012-yilning oktabr oyida poytaxtimizda shotokan karate-do bo'yicha o'tkazilgan II jahon kubogi musobaqasida ham mazkur maktab o'quvchilari Gulxan Tobatova, Shahzoda Auesbayeva, Guliston Kaypanova, Oysanam Allamberganova va Eleanora Kudiyorova yuqori o'rinlarga sazovor bo'lishgan edi.

Shoh MUHAMMAD

TA'TIL MAZMUNLI O'TDI

Toshkent shahrida 5–9-sinf o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari» musobaqasining tuman bosqichlari davom etmoqda.

Musobaqa O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Toshkent shahar filiali tomonidan o'quvchi-yoshlarning ta'til kunlarini mazmunli tashkil etish, «Umid nihollari» sport musobaqasida qatnashadigan poytaxt jamoasi tarkibini shakllantirish maqsadida o'tkazilmoqda. Unda o'g'il-qizlar sportning 12 turi bo'yicha bahslashishmoqda.

Mirzo Ulug'bek tumanidagi «Yugnakiy» bolalar sport majmuasida o'tkazilgan ana shunday musobaqalardan birida tuman umumta'lim maktablari o'quvchilari stol tennisi bo'yicha kuch sinashdi. Bahsda 208-umumta'lim maktabi o'quvchilari Doniyor Mahkamov, Marsel Shayxuddinov, Rozalina Hojiyeva hamda 171-maktab o'quvchisi Anastasiya Yunoshlar shohsupaga ko'tarilishdi.



IQTIDORLILAR MASKANI

Bunday maskanlar sirasiga Guliston shahridagi 2-sonli musiqa va san'at maktabi ham kiradi. 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Milliy dastur asosida qurib, foydalanishga topshirilgan bu maktabda hozirgi kunda 106 nafar iste'dodli o'quvchi tahsil oladi. Ularga 24 nafar malakali ustozlar musiqa va san'atning 11 yo'nalishi bo'yicha saboq berib kelishyapti. Bu maskanda tahsil olayotgan 4-sinf o'quvchisi Kamola Abdullayeva «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida turli mavzudagi rasmlari bilan qatnashib, g'olib bo'ldi va respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Kamola ustozlari To'lqin Yo'rulovdan musavvirlarning sir-u sinoatlarini o'rganib, tabiat ne'matlari, manzaralarini turfa ranglarda aks ettirishga harakat qilyapti. Siz ham Kamolaning chizgan rasmlariga baho bering.

O'z muxbirimiz



BAHS

Keling, ertak o'qiymiz!

Bir kuni o'quv qurollari o'zaro bahslashib qolishdi. Eng avvalo ruchka gap boshladi:

– Men barcha o'quv qurollari ichida eng keraklisi, eng chiroylisiman, – deya maqtandi u. Shunda daftar:

– Namuncha maqtanmasang? Bilsang, mening ham o'z o'mim bor. Mensiz yolg'iz o'zing nima ham qilarding? Nimaga yozarding? – dedi u ham biroz maqtanib. Shu payt suhbatga qalam qo'shildi:

– Odamlarga eng zarur o'quv quroli bu menman. Men orqali qanchadan-qancha rassomlarning ijod namunalari dunyo yuzini ko'rgan. Shunday ekan, orangizda eng zo'ri o'zimman!

– Hay-hay, sen gapirma, qalam do'stim, – dedi o'chirg'ich kibor bilan. – Mensiz yolg'iz o'zing ishlashing qiyin, jahlim chiqsa, barcha

chizganlarini o'chirib tashlayman!

Shunda sumkaning bir chetida odob bilan barcha gaplarni tinglab turgan kitob:

– Tortishshning nima keragi bor? Barchamiz ham insonlarga birday kerakmiz. Axir, bekordan-bekorga sumkada olib yurishmasa kerak-a? – dedi donolik bilan.

– Bu fikringga qo'shilmayman, – deya o'z so'zida turib oldi ruchka qaysarlik bilan. – Men tufayli sendek kitoblarning dunyoga keladi...

Oradan ko'p o'tmay, sumkaning og'zi ochilib, egasi haqiqatdan ham eng avvalo ruchkani oldi. So'ng daftar-kitob, qalam va o'chirg'ichini olib, stol ustiga qo'ydi. Qo'lga maqtanchoq ruchkani olib, daftariga kitobdan allanarsalarni ko'chirib yoza boshladi. Ruchka o'zicha quvonib ana ko'rdingizmi, deganday kerilib ketdi. Shu payt to'satdan uning siyohi tugab, yozmay qoldi.

Egasi uni tashlab yubordi-da, qo'lga qalamni olib, ishini davom ettirdi. Ruchkaning chiqindi qutida keraksiz bo'lib yotganini ko'rgan do'stlari:

– Ana, maqtanishning oqibati shunday bo'ladi, deb boshlarini chayqab qo'yishdi.

Muslima
MAMBETNIYOZOVA,
Qoraqalpog'davlat
universiteti
qoshidagi
Nukus 2-sonli
akademik litseyi
o'quvchisi

Tun... Derazadan yulduz to'la osmonga tikilib, ko'nglim bir orziqdi. Sog'inch hissidan entikdim. Sukunat hukm surayotgan fazoga uzoq termulgan ko'zlarim uyquga ketganini sezmadman...

DIYDOR

(Qatra)

Xonamga tushayotgan quyosh nurlari taftidan ko'zimni ochsam, tong otibdi.

Nazarimda qalbmimdagi

kechagi sog'inch

yanada alanga

olganek...

Kimnidir intiq kutyapman...

Eshik qo'ng'irog'i

jiringlab, xayollarimni

to'zg'itib yubordi. Shoshilib

yo'lakka yugurdim. Eshik tutqichini

tutgan qo'llarim o'z-o'zidan titrab,

ko'zlarim quvonchdan porlab ketdi. Ostonada onajonim turardi...

Bag'riga otildim. Oh, bunchalar issiq, qanchalar huzurbaxsh.

Onajonim, Sizni juda sog'indim, – unsiz so'zlaydi ko'zlarim.

– Bolajonim, mening borlig'im sensan, – shivirlaydi onamning lablari.

Diydor, sening qiyosing yo'q.

Osiyo JAYLOBOVA

Gazetaning 1-sonida berilgan CHAYNKROSSVORDning

javoblari:			
1. Temirchi.	5. Limon.	8. Taroq.	11. Anhor.
2. Ishora.	6. Nashida.	9. Qaram.	12. Ruhan.
3. Armon.	7. Asorat.	10. Malika.	13. Nizom.
4. Nuqul.			14. Mushuk.
			15. Kurka.
			16. Amin.
			17. Nahot.

14-yanvar 2013

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'iasi.

Bosh muharrir:
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi:
Sayyora
QODIROVA
Rassom:
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner:
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih:
Dilorom
HOTAMOVA

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 85 939
Buyurtma N: J 6177